

Respublika OAK jurnali

ISSN 2181-4201

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY-METODIK JURNALI



IYUL 2026, 4-SON

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
<https://etjournal.buxdpi.uz>



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

№. 4

BUXORO – 2026

TALABALARNING YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TARJIMA STRATEGIYALARINI QO'LLASH

Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi,

Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

shakhnoznorboyeva01@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'rganayotgan talabalarning yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda tarjima strategiyalaridan foydalanishning nazariy, metodik va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tarjima strategiyalarini yozish jarayonining rejalashtirish, fikrni shakllantirish, matn yaratish, qayta ko'rib chiqish va tahrirlash bosqichlariga integratsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, tarjimaning an'anaviy grammatik-tarjima metodidan tashqari zamonaviy pedagogik vosita sifatidagi imkoniyatlari yoritiladi.

Tayanch so'zlar: yozma nutq, yozma nutq kompetensiyasi, tarjima strategiyalari, chet tilini o'qitish, EFL, lingvistik transfer, metalingvistik anglash, teskari tarjima, qiyosiy tarjima.

USING TRANSLATION STRATEGIES TO DEVELOP STUDENTS' WRITTEN COMMUNICATION SKILLS

Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi,

Student of Bukhara State Pedagogical Institute

shakhnoznorboyeva01@gmail.com

Annotation. This article examines the theoretical, methodological, and practical potential of using translation strategies to develop students' written communication competence in foreign language education at higher education institutions. Particular attention is given to integrating translation strategies into different stages of the writing process, including planning, idea formation, drafting, revising, and editing. The article also highlights the potential of translation as a modern pedagogical tool that extends beyond its traditional use within the grammar-translation method.

Keywords: written communication, writing competence, translation strategies, foreign language teaching, EFL, language transfer, metalinguistic awareness, back translation, comparative translation.

ПРИМЕНЕНИЕ ПЕРЕВОДЧЕСКИХ СТРАТЕГИЙ В РАЗВИТИИ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ

Норбоева Шахноза Джурабек кызы,

Студентка Бухарского государственного педагогического института

shakhnoznorboyeva01@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические, методические и практические возможности использования переводческих стратегий в развитии письменной коммуникативной компетенции студентов, изучающих иностранный язык в высших образовательных учреждениях. Особое внимание уделяется интеграции переводческих стратегий в различные этапы письменной деятельности, включая планирование, формирование идей, создание текста, пересмотр и редактирование. Также освещается потенциал перевода как современного педагогического инструмента, выходящего за рамки его традиционного применения в рамках грамматико-переводного метода.

Ключевые слова: письменная речь, письменная коммуникативная компетенция, переводческие стратегии, обучение иностранному языку, EFL, языковой перенос, метаязыковая осведомлённость, обратный перевод, сравнительный перевод.

Kirish. Zamonaviy globallashuv jarayonlari, xalqaro akademik hamkorlikning

kengayishi, raqamli kommunikatsiyaning jadallashuvi va mehnat bozorida xorijiy tillarga bo'lgan ehtiyojning ortishi chet tilini o'rganuvchilardan yuqori darajadagi yozma kommunikativ kompetensiyani talab qilmoqda. Bugungi kunda xorijiy tilni bilish faqat kundalik suhbatda muloqot qila olish yoki grammatik qoidalarini nazariy jihatdan bilish bilan chegaralanmaydi. Talaba akademik esse, ilmiy maqola, rasmiy elektron pochta, hisobot, ariza, loyiha tavsifi va boshqa yozma janrlarni mustaqil ravishda yaratish, o'z fikrlarini aniq va izchil ifodalash hamda matnni muayyan auditoriya va kommunikativ vaziyatga moslashtira olish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Yozma nutq chet tilini o'zlashtirishning eng murakkab ko'nikmalaridan biri hisoblanadi. Chunki yozuvchi bir vaqtning o'zida bir nechta jarayonlarni boshqarishi kerak: mavzu bo'yicha fikrlarni shakllantirish, ularni mantiqiy tartibga solish, mos leksik birliklarni tanlash, grammatik jihatdan to'g'ri gaplar tuzish, gaplar va paragraflar o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlash, uslubni nazorat qilish va yakuniy matnni tahrirlash. Ayniqsa, chet tilini o'rganuvchi talaba uchun mazmunni shakllantirish va uni o'rganilayotgan tilda ifodalash bir vaqtning o'zida katta bosim hosil qilishi mumkin.

Mazkur muammo O'zbekistondagi oliy ta'lim jarayonida chet tillarini o'rganayotgan talabalar uchun ham dolzarbdir. O'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi grammatik, sintaktik, leksik va frazeologik farqlar talabalarining yozma nutqida turli xatolarning paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Talaba o'zbek tilida shakllantirgan fikrni ingliz tiliga bevosita ko'chirishga harakat qilganda, ona tilining sintaktik modeli, so'z birikmalari yoki semantik munosabatlari ingliz tilidagi yozma matnga ko'chib o'tishi ehtimoli mavjud. Boshqa tomondan, talabaning ona tilidagi bilimlari uning chet tilida fikrni shakllantirish jarayonida muhim tayanch vazifasini ham bajarishi mumkin. Shu sababli zamonaviy chet tili metodikasida ona tilidan foydalanish va tarjimaning roliga nisbatan bir tomonlama qarashlar qayta ko'rib chiqilmoqda. Guy Cook tarjimani til o'qitish jarayonida qayta baholash zarurligini asoslab, tarjima tilga oid anglash va tilni amaliy qo'llashni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv tarjimani faqat an'anaviy grammatik-tarjima metodining qoldig'i sifatida emas, balki zamonaviy til ta'limida maqsadli va pedagogik jihatdan nazorat qilinadigan faoliyat sifatida ko'rish imkonini beradi.

Philip Kerrning “Translation and Own-language Activities” asarida ham tarjima va o'quvchining ona tilidan foydalanishning turli shakllarini chet tili darslariga puxta rejalashtirilgan holda integratsiya qilish imkoniyatlari ko'rsatiladi. Muallif tarjima faoliyatini alohida professional tarjimonlik ko'nikmasi bilan cheklamasdan, ikki til o'rtasida ma'no va kommunikativ mazmunni muvofiqlashtirish bilan bog'liq til faoliyati sifatida ko'rib chiqadi.

Tarjima va yozma nutq o'rtasidagi aloqani o'rgangan tadqiqotlar ham mazkur masalaning dolzarbligini ko'rsatadi. Xususan, E. T. Murtisari tomonidan yuqori darajadagi EFL talabalarining yozish jarayonida tarjima strategiyalaridan foydalanishi o'rganilgan. Ushbu tadqiqot tarjimaning yozish jarayonida tayanch, ya'ni scaffolding vazifasini bajarishi mumkinligini ko'rsatadigan muhim manbalardan biridir. Mazkur natija tarjimadan foydalanishni faqat boshlang'ich darajadagi o'quvchilarga xos hodisa sifatida baholashning biryoqlama ekanini ko'rsatadi. Bundan tashqari, talaba tarjima vositalariga yoki tayyor muqobillardan haddan tashqari tayanib qolsa, uning mustaqil yozish va fikrni bevosita chet tilida shakllantirish qobiliyati yetarlicha rivojlanmasligi mumkin. British Council materiallarida ham tarjima faoliyatining samaradorligi uning qanday rejalashtirilgani, qanday maqsadga yo'naltirilgani va boshqa til ko'nikmalari bilan qanday integratsiya qilinganiga bog'liqligi qayd etiladi.

Mazkur tadqiqot nazariy-analitik va metodik xarakterga ega. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, qiyosiy tahlil, konseptual umumlashtirish, pedagogik interpretatsiya va metodik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy bazasini tarjimaning chet tilini o'qitishdagi o'rnini qayta ko'rib chiqishga qaratilgan ilmiy qarashlar hamda tarjima va ona tilidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini yorituvchi

manbalar tashkil etadi. Xususan, Guy Cookning tarjimani til o'qitishda qayta baholashga qaratilgan qarashlari, Philip Kerrning tarjima va own-language activities konsepsiyasi, Murtisarinig EFL talabalarining yozish jarayonidagi tarjima strategiyalariga bag'ishlangan tadqiqoti hamda British Councilning tarjima faoliyatiga oid metodik materiallari asosiy nazariy manbalar sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqot doirasida tarjima strategiyalari quyidagi besh bosqichli yozish jarayoni asosida ko'rib chiqildi:

- 1-bosqich — pre-writing: mavzu bo'yicha fikrlarni shakllantirish va rejalashtirish;
- 2-bosqich — drafting: dastlabki yozma matnni yaratish;
- 3-bosqich — translation-mediated reformulation: fikr yoki mazmunni bir tildan ikkinchi tilga qayta shakllantirish;
- 4-bosqich — revision: mazmun, mantiqiy izchillik, leksik va grammatik tanlovlarni qayta ko'rib chiqish;
- 5-bosqich — editing: yakuniy matnni grammatik, uslubiy va texnik jihatdan tahrirlash.

Tahlilda yozma nutqning rivojlanishi to'rtta asosiy mezon orqali baholandi: mazmuniy aniqlik, grammatik to'g'rilik, leksik boylik va uslubiy-kommunikativ moslik.

Ushbu metodologik yondashuvda tarjima yakuniy mahsulot sifatida emas, balki yozuvchining fikrni shakllantirish va uni qayta ifodalash jarayonidagi kognitiv vosita sifatida qaraladi. Shu asosda maqolada quyidagi konseptual model ishlab chiqildi:

Ona tilidagi mazmuniy reja → ma'no birliklarini tarjima qilish → L2da qayta shakllantirish → mustaqil yozish → qiyoslash → tahrirlash → yakuniy mustaqil matn.

Mazkur modelning asosiy maqsadi chet tilida mustaqil yozish qobiliyatini o'z ona tili ta'sirisiz bosqichma-bosqich rivojlantirishdir.

Nazariy manbalar va mavjud tadqiqotlar tahlili asosida tarjima strategiyalarining talabalarining yozma nutqini rivojlantirishda kamida beshta asosiy funksiyani bajarishi aniqlandi: kognitiv tayanch, lingvistik anglash vositasi, leksik tanlovni rivojlantirish vositasi, tahrirlash mexanizmi va refleksiv faoliyat vositasi.

1. Tarjima strategiyasi kognitiv tayanch sifatida:

Chet tilida yozish jarayonida talaba ko'pincha ikki muammoni bir vaqtning o'zida hal qilishi kerak: birinchisi, "nima demoqchiman?", ikkinchisi esa "buni ingliz tilida qanday aytaman?". Til darajasi yetarlicha yuqori bo'lmagan talabalar uchun bu ikki jarayonni bir vaqtda boshqarish aqliy jihatdan murakkab bo'lishi mumkin. Shunday vaziyatda tarjima strategiyasi vaqtinchalik tayanch vazifasini bajaradi. Talaba dastlab o'z fikrining mazmunini aniqlashtiradi, keyin esa uni chet tilida ifodalashga e'tibor qaratadi. Bu yondashuv yozish jarayonini kichikroq va boshqariladigan bosqichlarga ajratadi.

Masalan, talaba “Talabalar xorijiy tillarni o'rganish orqali turli madaniyatlar haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lishlari mumkin” degan fikrni yozmoqchi bo'lsin. U dastlab mazmunni shakllantiradi:

O'zbekcha

mazmun:

Xorijiy til o'rganish talabaga boshqa madaniyatlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Keyin so'zma-so'z tarjima qilishdan ko'ra, ingliz tilidagi tabiiy variantni izlaydi:

Learning a foreign language can help students develop a deeper understanding of other cultures.

Bu jarayonda talaba “develop a deeper understanding” iborasini, modal fe'lining ishlatilishini va “learning a foreign language” gerundial konstruksiyasini o'zlashtiradi.

Demak, tarjima bu yerda tayyor javob beruvchi vosita emas. Aksincha, u talabaning mazmunni shakllantirishdan til shaklini tanlashgacha bo'lgan kognitiv yo'lini qo'llab-quvvatlaydi.

Murtisari tomonidan olib borilgan tadqiqot ham EFL talabalarining yozish jarayonida tarjimadan foydalanishini ko'rsatadi. Bu tarjima strategiyalarini yozma nutqning tabiiy qismi sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadigan muhim dalillardan biridir.

2. Tarjima va leksik kompetensiya:

Yozma nutqdagi muammolarning katta qismi alohida soʻzlarni bilmaslikdan emas, balki soʻzlarning qanday birikishini bilmaslikdan kelib chiqadi. Talaba grammatik jihatdan toʻgʻri soʻzlarni tanlashi mumkin, ammo ularni tabiiy kollokatsiyada qoʻllay olmasligi mumkin.

Masalan:

make a decision — to ‘gʻri;

do a decision — notoʻgʻri.

pay attention — to ‘gʻri;

give attention — ayrim kontekstlarda mumkin boʻlsa-da, “pay attention” bilan bir xil tabiiylikka ega emas.

Tarjima strategiyasi orqali talabalar ikki tilning soʻz birikmalar tizimi oʻrtasidagi farqlarni koʻrish imkoniyatiga ega boʻladilar.

Masalan:

“qaror qabul qilmoq”

Talaba soʻzma-soʻz tarjima orqali “take a decision” variantini tanlashi mumkin. Bu ayrim ingliz tili variantlarida, xususan, British Englishda ishlatilishi mumkin boʻlsa-da, umumiy akademik kontekstda “make a decision” keng tarqalgan variantlardan biridir. Shunday qiyosiy tahlil talabaga tarjima “bir soʻz = bir soʻz” tamoyiliga asoslanmasligini koʻrsatadi. Demak, tarjima faoliyatining muhim pedagogik natijalaridan biri talabaning lexical choice, yaʼni leksik tanlov kompetensiyasini rivojlantirishdir

3. Qiyosiy tarjima orqali grammatik anglash

Oʻzbek va ingliz tillari grammatik tizimlari oʻrtasidagi farqlar talabalarning yozma nutqida turli muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, ingliz tilida maqolalarning mavjudligi, yordamchi feʼllarning qoʻllanilishi, soʻz tartibining nisbatan qatʼiyligi va zamon shakllarining ifodalanish xususiyatlari oʻzbek tilidan farq qiladi. Tarjima strategiyasi ushbu farqlarni bevosita koʻrsatish imkonini beradi.

Masalan:

Oʻzbekcha:

Men universitetda uch yil davomida ingliz tilini oʻrganib kelmoqdaman.

Inglizcha:

I have been studying English at university for three years.

Talaba ikki variantni qiyoslash orqali oʻzbek tilida grammatik jihatdan ochiq ifodalanmagan ayrim munosabatlar ingliz tilida maxsus grammatik vositalar orqali ifodalanishini angelaydi. Bu jarayon grammatik qoidani shunchaki yodlashdan koʻra, uning real kommunikativ vazifasini tushunishga yordam beradi. Shu maʼnoda tarjima metalingvistik anglash, yaʼni tilning qanday ishlashini ongli ravishda kuzatish va tushunish imkonini beradi.

4. Kontekstual tarjima va yozma uslub

Yozma nutqning sifati faqat grammatik toʻgʻrilik bilan belgilanmaydi. Bir xil mazmun turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha ifodalanishi mumkin.

Masalan:

Informal:

Thanks for getting back to me.

Formal:

Thank you for your response.

Talabaga bir xil mazmunni turli janrlarda tarjima qilish topshirigʻi berilsa, u tilning nutq uslubi va ifoda xususiyatlarini anglay boshlaydi. British Councilning metodik materiallarida ham tarjima faoliyati jarayonida maʼno bilan bir qatorda shakl, uslub va iboralarni hisobga olish zarurligi koʻrsatiladi. Shu sababli tarjima mashgʻulotlari yozma nutqning uslubi jihatini rivojlantirish uchun ham xizmat qilishi mumkin.

5. Teskari tarjima va oʻz-oʻzini tahrirlash

Teskari tarjima strategiyasi talabaning oʻz yozma mahsulotini tanqidiy koʻrib chiqishiga

yordam beradi. Kerrning tarjima metodikasiga oid ishida reverse translation alohida faoliyat sifatida ko'rib chiqiladi va uning grammatik hamda leksik maqsadlarda qo'llanish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

Bu strategiyani yozma nutqni rivojlantirishga quyidagicha moslashtirish mumkin:

1-bosqich: Talaba o'zbekcha matnni ingliz tiliga tarjima qiladi.

2-bosqich: Inglizcha matn boshqa talabaga beriladi.

3-bosqich: Ikkinchi talaba matnni o'zbek tiliga qayta tarjima qiladi.

4-bosqich: Dastlabki o'zbekcha matn va qayta tarjima qilingan variant taqqoslanadi.

5-bosqich: Mazmuniy yo'qotishlar, grammatik xatolar va noto'g'ri tanlangan birliklar aniqlanadi.

6-bosqich: Inglizcha matn qayta tahrirlanadi.

Bu faoliyatning asosiy pedagogik qiymati shundaki, talaba o'z matnini muallif sifatida emas, balki tashqi kuzatuvchi sifatida ko'rishni o'rganadi.

Tarjima strategiyalarini yozma nutqni rivojlantirishga bosqichma-bosqich integratsiya qilish mumkin. Dastlab talaba mavzu bo'yicha fikrlarini shakllantirib, zarur so'z va grammatik birliklarni aniqlaydi. Keyin ularni ona tilidan chet tiliga tarjima qilib, turli variantlarni taqqoslaydi va shu asosda mustaqil matn yaratadi. So'ng yozgan ishini tahlil qilib, grammatik, leksik va uslubiy xatolarini tuzatadi. Yakunda tarjima jarayonidagi qiyinchilik va xatolarini tahlil qiladi. Bunday yondashuv tarjimani oddiy so'zma-so'z o'girishdan ko'ra, talabaning mustaqil fikrlashi va yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali vositaga aylantiradi.

Tarjima strategiyalarining yozma nutqni rivojlantirishdagi o'rnini muhokama qilganda, uning afzalliklari va cheklovlarini bir vaqtning o'zida hisobga olish zarur. Bir tomondan, tarjima talabaning yozish jarayonida fikrni shakllantirishiga, leksik birliklarni izlashiga, grammatik farqlarni anglashiga va o'z matnini tahrirlashiga yordam beradi. Ikkinchi tomondan, tarjimaga haddan tashqari tayanish talabaning mustaqil ravishda chet tilida fikr shakllantirish qobiliyatini cheklashi mumkin. Tarjima strategiyalarining yakuniy maqsadi talabani tarjimaga qaram qilish emas, balki uning mustaqil chet tili yozuvchisi sifatida shakllanishiga yordam berishdir. Kerrning ishlarida ham tarjima va ona tilidan foydalanishning turli darajalari va shakllarini bir-biridan farqlash zarurligi ko'rsatiladi. Ona tilidan foydalanishning barcha ko'rinishlarini bir xil pedagogik hodisa sifatida baholash to'g'ri emas.

Bundan tashqari, tarjima faoliyati kommunikativ va hamkorlikdagi topshiriqlar bilan birlashtirilganda samaraliroq bo'lishi mumkin. British Council materiallarida guruhli tarjima, turli variantlarni taqqoslash, teskari tarjima va “yomon tarjimalar”dagi xatolarni tahlil qilish kabi faoliyatlar tavsiya qilinadi. Bunday topshiriqlar talabalarning ma'no, shakl, aniqlik va tabiiylik haqida chuqur muhokama olib borishiga imkon beradi. Shu nuqtayi nazardan, tarjima strategiyalarini individual mashq sifatida emas, balki hamkorlikdagi yozuv va tahrirlash jarayonining bir qismi sifatida qo'llash ham muhimdir. Masalan, guruhdagi talabalar bir matnning uch xil tarjima variantini yaratishlari mumkin. Keyin ular quyidagi mezonlar asosida variantlarni baholaydilar:

- 1) grammatik to'g'rilik;
- 2) leksik aniqlik;
- 3) tabiiylik;
- 4) so'z birikmalarining mosligi;
- 5) uslubiy muvofiqlik;
- 6) kommunikativ samaradorlik.

Shundan so'ng guruh yakuniy variantni yaratadi. Bunday topshiriq talabaning faqat tarjima qilish emas, balki til haqida qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Maqola doirasidagi tahlil asosida quyidagi ilmiy-metodik xulosani ilgari surish mumkin: tarjima strategiyasining pedagogik samaradorligi uning mavjudligi bilan emas, balki uning

didaktik funksiyasi bilan belgilanadi. Agar tarjima talabaga yangi soʻzning ekvivalentini topish uchungina berilsa, uning taʼlimiy qiymati cheklangan boʻlishi mumkin. Agar tarjima talabaning mazmunni anglash, lingvistik variantlarni taqqoslash, mustaqil qaror qabul qilish va oʻz matnini tahrirlash jarayoniga integratsiyalashsa, uning pedagogik imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi. Bu tadqiqotning nazariy ahamiyati tarjima faoliyatining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi rolini qayta talqin qilish bilan belgilanadi. Tadqiqot tarjimini anʼanaviy grammatik-tarjima metodining chegaralangan vositasi sifatida emas, balki yozish jarayonining ayrim bosqichlarini qoʻllab-quvvatlovchi pedagogik strategiya sifatida koʻrib chiqishni taklif qiladi. Amaliy jihatdan esa maqolada taklif etilgan model ingliz tili oʻqituvchilari, oliy taʼlim muassasalaridagi chet tili oʻqituvchilari va akademik yozuv kurslarini tashkil etuvchi mutaxassislar uchun foydali boʻlishi mumkin.

Olib borilgan nazariy va metodik tahlil natijalari talabalarning yozma nutqini rivojlantirishda tarjima strategiyalaridan foydalanish sezilarli pedagogik imkoniyatlarga ega ekanini koʻrsatdi. Tarjima faoliyati toʻgʻri tashkil etilganda talabaning mazmunni shakllantirish, leksik birliklarni tanlash, grammatik farqlarni anglash, kollokatsion birliklardan foydalanish, uslubiy moslikni taʼminlash va oʻz yozma mahsulotini tahrirlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, tarjima strategiyalarining samaradorligi ularning qanchalik koʻp qoʻllanilishiga emas, balki qanday maqsadda va qanday metodik bosqichda qoʻllanilishiga bogʻliq. Tarjima mexanik va soʻzma-soʻz oʻgʻirish faoliyatiga aylantirilsa, u talabaning ona tiliga qaramligini kuchaytirishi mumkin. Aksincha, tarjima qiyoslash, tahlil qilish, qayta shakllantirish va tahrirlash bilan birgalikda qoʻllanilsa, talabaning yozma nutq kompetensiyasini rivojlantiruvchi kuchli pedagogik vositaga aylanishi mumkin.

Shu sababli tarjima strategiyalarini yozma nutqni rivojlantirishda “maqsad” emas, “vosita” sifatida koʻrish lozim. Uning asosiy vazifasi talabaning ona tilidan foydalanishini doimiy ravishda kuchaytirish emas, balki zarur holatlarda fikrni shakllantirish va til birliklarini anglash uchun tayanch boʻlib xizmat qilish, keyinchalik esa talabani mustaqil ravishda chet tilida fikrlash va yozishga olib borishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Cook, G. (2010). Translation in Language Teaching: An Argument for Reassessment. Oxford: Oxford University Press.
2. Kerr, P. (2014). Translation and Own-language Activities. Cambridge: Cambridge University Press. DOI: 10.1017/CBO9781107337601.
3. Kerr, P. (2014). Language skills. In Translation and Own-language Activities (pp. 93–120). Cambridge University Press. DOI: 10.1017/9781009024815.006.
4. Murtisari, E. T. (2021). Use of Translation Strategies in Writing: Advanced EFL Students. LLT Journal: A Journal on Language and Language Teaching, 24(1), 228–239.
5. British Council. Kaye, P. Translation activities in the language classroom. TeachingEnglish.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA , PSIXOLOGIYA VA METODIKA	
SPORT YO'NALISHIDAGI QO'SHIMCHA TA'LIM ORQALI O'QUVCHILARNING BO'SH VAQTINI MAZMUNLI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI Ibragimov Sanjar Saidjonovich	4
SUN'IY INTELLEKTDAN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISHNING ETIK VA HUQUQIY JIHATLARI Umedjanova Malika Lukmanovna	8
AYOLLAR REGBISI: SHAKLLANISH TARIXI, ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IJTIMOY-PEDAGOGIK AHAMIYATI Ibragimov Manuchexr Baxtiyorovich	12
BOSHLANG'ICH SINF TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA TABAQALASHTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI Bozorova Hamida Shukriloyevna	15
O'ZBEK XALQ CHOLG'U ASBOBLARINING PAYDO BO'LISH TARIXI VA ULARNING MAKTAB DASTURIDAGI O'RNI Ibodov O'ktam Rasulovich	18
CHIM USTIDA XOKKEY MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA TALABALARINING TEXNIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI Ismoilov Husniddin	21
TABAQALASHTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TASVIRIY SAN'ATGA OID KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI Bozorova Hamida Shukriloyevna	28
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING DARSDAN TASHQARI TARBIYAVIY FAOLIYATIDA MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH Jabborova Fotima Nutfullojon qizi	34
MAGISTRATURA TALABALARINING TADQIQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUVNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI Jamshid Tagaymurodovich Parmanov	41
O'QUV JARAYONIDA TALABALARINING MUSTAQIL ISHLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI Aminov Akmal Shavkatovich	48
STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA Usmonova Zulfiya Ilxomovna	52
SHARQ MUTAFAKKIRLARINING IQTISODIY QARASHLARI VA ULARNING PEDAGOGIK MOHIYATI Ruziyeva Gulinoz Fatilloevna	59
REFLEKSIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILAR O'QUV-BILUV FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH	65

Bozorov Vahobiddin Nuriddinovich	
---	--

O'QUVCHILARDA MILLIY ONG VA MILLIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQIY TADBIRLARNING O'RNINI VA AHAMIYATI Karimov Olimxo'ja Islomovich	79
ESTRADA QO'SHIQCHILIGI RIVOJIDA VOKAL FANINING ROLI Karimov Olimxo'ja Islomovich	83
FILOLOGIYA FANLARI	
USAGE CHARACTERISTICS OF NEW NOUN LEXEMES IN MODERN UZBEK NEWSPAPER AND ONLINE MEDIA LANGUAGE Saidova Khurshida Fakhridin qizi	87
TALABALARNING YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TARJIMA STRATEGIYALARINI QO'LLASH Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	93
ANTONIMLAR VA ULARNING LINGVOPOETIK VAZIFALARI ABDURAHMON JOMIY VA ALISHER NAVOIY ASARLARIDA Tavakkal Choriyev	99
METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE THINKING THROUGH THE INTEGRATIVE TEACHING OF BRITISH CHILDREN'S LITERATURE Kodirova Zarina Bakhodirovna	117

ANIQ VA TABIIY FANLAR	
BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA MAKTAB O'QUV-TAJRIBA UCHASTKASI FAOLIYATINI LOYIHALASHTIRISH VA TALABALARNING KASBIY FAOLLIGINI OSHIRISH Usmonova Mubashira Suvonovna	121
TIBBIY TA'LIM JARAYONIDA DIVERGENT TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI Bekchanova Soliha Davlatnazarovna	129
INTERAKTIV MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH ORQALI OLIY TA'LIMDA KOGNITIV FAOLLIKNI OSHIRISH METODLARINING KONSEPTUAL VA GNOSOLOGIK TAHLILI Asadova Sitora Sadullayevna	136
RAQAMLI TA'LIM MUHITINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI VA UNI TEXNIK YO'NALISHDAGI KASBIY TA'LIMDA QO'LLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI Savriyev Shamshod Shuxrat o'g'li	141
REFLEKSIY YONDASHUV ASOSIDA "ODAM VA HAYVONLAR FIZIOLOGIYASI" FANINI O'QITISHNING METODIK TIZIMI Odilova Mahfuza Ochilovna	151



QAYDLAR UCHUN



QAYDLAR UCHUN

**TA'LIM
TRANSFORMATSIYASI
ILMIY – METODIK
JURNAL**
№. 4

BOSH MUHARRIR

Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, p.f.d. (DSc), professor MA'MUROV BAHODIR

BAXSHULLAYEVICH

Muharrir:
Texnik muharrir:
Sahifalovchi:
Dizayner:

A. Kalandarov
G. Samiyeva
Z. Elmurotova
M. Arslonov

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original – maketdan bosishga ruxsat etildi: 01.07.2024.
Bichimi: 60/84 ¹/16 «Palatino Linotype» garn. Ofset bosma usulida. Ofset bosma qog'oz. Bosma tabog'i
6,75 Adadi 50. Buyurtma № 124. Bahosi kelishilgan holda.



«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahar O'zbekiston Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46

